

**TARBIYA VA TA'LIM**

Rahimova Gavxar

Musiq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Andijon davlat universiteti

Rahimov Sayfuddin

Musiq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya :**

Zamonaviy ta'lim siyosati strategiyasining asosi talabalarga yo'naltirilgan ta'lim muhitini qurishga o'tishdir. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni olishga, ijodiy yo'naltirilgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

**Kalit so'zlar:** ijodiy vazifa, ta'lim, orkestr, modernizatsiya, musiqa madaniyati, ustoz.

Musiqa madaniyatining ildizlari qadimgi davrlarda shakllangan xalq musiqa ijodiga borib taqaladi. Har bir xalqning uzoq asrlardan kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga bebaho ma'naviy meros bo'lib qolayotgan kuy va qo'shiqlari, lapar va yallalari, ashula va allalari bor. Goho bu ma'naviy merosni bir ibora bilan milliy musiqa ham deyishadi.

Chunki, bu musiqa milliy o'zlikni anglashda, millionlab kishilar o'zlarini bir tanu bir jondek his qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, kasbiy bastakor va kompozitorlar ham o'zlari ijod qilayotgan doston, maqom, suvora, katta ashula yoki simfoniya va opera kabi asarlarida xalq musiqasiga tayanadilar. Chunki, mazkur janrlarda yaratilgan xalq musiqa asarlarining tinglovchiga badiiy-hissiy ta'sir kuchi ham yuqori bo'ladi.

Musiqaning odamlarning ma'naviy boyligini shakllantirishdagi va ularni tarbiyalashdagi ahamiyati inobatga olinib, qariyb har bir mamlakatda ushbu san'atni yosh avlodga o'rgatishga mo'ljallangan maxsus o'quv maskanlari ochilgan. Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi.



1948 yilga Toshkent Davlat konservatoriyasida xalq cholg' u ijrochiligidan ta'lim berish boshlandi va oradan bir oz vaqt o'tgach orkestr sinfi tashkil qilinib cholg' u ijrochiligi rivojlanib ketdi. Endilikda nafaqat o'zbek kuylari, balki qardosh xalq musiqalari, Ukraina, Maldaviya, Turkman, Tojik, Qoraqalpoq, Uyg'ur musiqalari bilan bir qatorda Ovrupa kuylarini ham ijro etish yo'lga qo'yildi. 1955-60- yillarda orkestr ijrochilar soni yuzga yaqinlashib bordi, orkestr tarkibida urma zarbli litavra, triugolnik, baraban, doiralar, torli-kamonchali musiqa cholg'ulariga g'ijjak: prima alt, bas va kotrabaslar, torli urma chang cholg'usining prima, tenor, alt, bas, tanbur I-II, torli-mizrobli prima ruboblar, afg'on rubobi va qashqar ruboblari, shuningdek dutorlar oilasi: prima, sekunda, alt, tenor, bas, kontrabaslar, damli puflama asboblari nay, pikkalo, goboy, klarnet, surnay, qo'shnay asboblari kiritildi va shu musiqa cholg'ulari ijrosida turli halqlar musiqasini ijro etish imkoniyatlari yaratildi.

Modernizatsiyalashtirishdan asosiy maqsad: ko'p ovozli ansambl va orkestr jamoalarini tuzishdan iborat edi.

Demak, modernizatsiya, musiqa cholg' u asboblari takomillashtirish, cholg'ularini mustahkamligini, chidamligini, ayrim qismlarning sezgirlikni oshirish, tovush (ohang) hosil qilish sifatini, zamonaviy ijrochilikning yuksak texnik va badiiy talablariga javob bera oladigan darajada yaxshilashni anglatadi.

O'zbek orkestr ijrochiligi rivojiga katta hissa qo'shgan va iste'dodli sozandalar, jumladan, dirijyor va ijrochilar avlodini tarbiyalagan tajribali ustoz Abduraximova Feruza Ravshanovnadir. Uning o'z

dirijorlik maktabi, o'qitish metodikasi bor, unga ko'plab yosh dirijorlar amal qiladi. Firuza

Ravshanovna o'quvchiga bo'lajak kasbining barcha ahamiyati va go'zalligini yetkazishga, o'qish jarayoni unga og'irlik qilmasligiga, o'zlashtirgan bilimni mustahkam bo'lishiga intilayotgan ustozlardan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, uning ko'plab bitiruvchilari katta jamoalarda kasbiy faoliyatni boshladilar, keyinchalik o'z jamoalarini tuzdilar, ba'zilar ommaviy madaniy-ma'rifiy muassasalarning rahbarlari.



**Bobirjon Soliyev- katta jamoalarda kasbiy faoliyatni boshladilar, keyinchalik o'z jamoalarini tuzdilar.**

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. YU.Rajabiy, I.Akbarov. O'zbek xalq musiqasi. I-II-III tomlar. Toshkent. O'zdamnashr.1955 yil.
2. K. Olimboeva, M.Ahmedova. O'zbek xalq sozandalari.Toshkent. 1959 yil.
3. A.Odilov.O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.
4. I.Akborov. Musiqa lug'ati. Toshkent. O'qituvchi. 1997 yil.
- 5 U.Rahmonov. D.Suleymanova. Musiqa to'garaklarini tashkil etish. Farg'ona. 2021 y.
5. S.Mannopov. So'nmas navolar. Farg'ona. 2003 yil.
6. U.Rahmonov. A.Ergashev. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqqa. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. 2021 yil.
7. U.Rahmonov. D.Suleymonova. Musiqa to'garaklarini tashkil etish. Farg'ona. 2021 yil.